

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2023
6-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal

ISSN 2181-8274

Muassislар:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Oliy ta'lifni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Manzil: 100095, Toshkent sh.
2-Chimboy ko'chasi, 96-uy.
Telefon: (71) 207-03-41
e-mail: rmxat@edu.uz

Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 2014-yil 26-dekabrda 0506 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal har ikki oyda o'zbek, rus va ingliz tillarida elektron shaklda chop etiladi.

"Ta'lif, fan va innovatsiya" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2015-yil 18-noyabrdagi 218/5-sonli qarori bilan 13.00.00 — PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha, 2018-yil 28-noyabrdagi 247/6-sonli qarori bilan 23.00.00 — SIYOSIY FANLAR bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ta'lif, fan va innovatsiya" jurnalidan ko'chirib bosish faqat tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi. Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riliqi uchun muallif mas'uldir. Tahririyat fikri mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin.

Jurnalning to'liq matnini esijournal.uz rasmiy saytidan yuklab olishingiz mumkin.

Maqola va murojaatlarningizni @esijournalbot telegram botiga yuboring.

Durdonakhan Tukhtasinova.

Durdonakhan Tukhtasinova.	How To Teach The English Language To Mixed Level Students.....	83
Боубур Қодиров.	Талабаларнинг маълумотлар базасини яратиш компетентлигини такомиллаштиришда дастурлаш технологияларидан фойдаланиш.....	85
Shoira Rahimova.	Unsurul-maoliy kaykovusning "Qobusnoma" asarida farzand tarbiyasiga oid fikrlarning ifodalananishi.....	88
Мусурмон Ҳуррамов.	Олий таълим мусассасалари фаолиятига сунъий интеллект технологиясини жорий этиш истиқболлари	91
Сарвиназ Салимова.	Бўлажак ўқитувчиларнинг замонавий модели ва квалиметрик диагностикаси.....	94
Jur'at Saidov.	Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va o'yinchoqlarning pedagogik ahamiyati	98
Noiba Sobirova.	Shaxsda mantiqiy fikrlashni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	101
Raxat Shilmanov.	Milliy harakatlari o'ynilarning mazmun-mohiyati	104
Oybek Abdumurotov.	Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'lifni tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida	106
Muxayyo Alikulova.	Jahon tajribasida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga doir ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar tahlili.....	110
Dilmurod Abdusamiyev.	O'qituvchilar kasbiy salohiyatini oshirishda talis baholash dasturining pedagogik imkoniyatlari	113
Sojida Ashirova.	Bo'lajak maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda pedagogik amaliyotlarning o'rni	116
Shapulat Atabayev, Dildora Raximjonova	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirish	119
Muqaddas Egamberdiyeva.	Multimedia vositalari asosida tayyorlov guruhi bolalarini ijodiy hikoya tuzishga o'rgatish metodikasini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	122
Dauletmurat Bekmuratov, Ismaxud Baymuratov.	Jismoniy sifatlarning umumiy tavsifi va ularni rivojlantirish	125
Charos Axmadova.	Sinfdan tashqari olib boriladigan jismoniy tarbiya ishlariga tasnif	128
Faxriddin Qosimov.	Malaka oshirish jarayonida jismoniy madaniyat o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirish modeli	131
Sevara Yuldasheva.	The effectivness of 5 e's of ibl in teaching english language	134
Зайниддин Арзикулов.	Физика фани ўқитувчиларининг методик тайёргарлигини такомиллаштириш	138
Dilfuza Qurbonboyeva.	Talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar tizimi.....	141
Камол Даусуров.	Zamonaviy informatika ўқитувчilarinin kасбий тармоқ жамоаларини яратиш самарадорлиги	144
Halima Shukurova, Dilrabo Qodirova.	Yangi islohotlar — yangi darsliklar	147
Umid Yakubov.	Talabalarda menejerlik kompetensiyasini takomillashtirishda boshqarish usullarining mazmuni.....	150
Sevinchoy Ro'zimboyeva.	Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlarda pedagogik faoliyatni tashkil etish mazmuni	153

“Al-Qonun”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Mahmud Qoshg’ariyning “Devon-u lug’atit turk” asarlari ajoyib manba bo‘lib xizmat qiladi [4, 7].

Xalqimizning nodir durdonalari bo‘lgan milliy xalq harakatli o‘yinlari va sanoq termalarini topish, jamlash va uni amaliyatga tadbiq qilish qadriyatlarimiz va ma’naviyatimizni tiklashdagi zarur vazifalardan biridir. Chunonchi, xalq harakatli o‘yinlarini aynan o‘z holicha o‘ynash bolalarga zavq-shavq beribgina qolmay, ma’naviy boyliklarimizga hurmat bilan qarashni, ularni e’zozlashni va saqlay bilishni ham o‘rgatadi.

Harakatli o‘yinlar bola harakatlarini o‘stirish va takomillashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan yurish, yugurish, sakrash, biror narsani irg‘itish yoki uloqtirish, biror narsaga tirmashib chiqish kabi mashqlarni o‘z ichiga oladi. Harakatlarning takomillashishi bilan birga, jismoniy qobiliyat ham taraqqiy etadi, yurak va nafas olish sistemasining faoliyati yaxshilanadi. Bundan tashqari harakatli o‘yinlar bolalarni jismoniy jihatdan o‘stirish uchungina emas, balki aqliy va ahloqiy jihatdan tarbiyalash uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Jamoa bo‘lib o‘ynaladigan o‘yinlarda bolalarda maqsadga erishish uchun farosatlilik va qat’iyatlilik ko‘rsatish, jamoa oldida, o‘z xatti-harakat-

lari uchungina emas, balki o‘rtoqlarining xatti-harakalari uchun ham mas’uliyatni sezish xislatlari tarbiyalanadi.

Demak, o‘yinlar — xalqning tabiiy va tarixiy ehtiyoji asosida shakllangan, ajdodlar turmushi, mehnati, tajribasi, kurashi, yutuqlarini boshqa shaklda aks ettiradigan, inson madaniyatining eng ko‘hna shakllari, ko‘pgina ma’naviy sohalar chashmasi, sog‘lom avlodni shakllantiruvchi tarbiya vositasi va zamondoshlarimizning jismoniy, ruhiy, aqliy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omildir [5, 6-7].

Xulosa shundaki, an’analari, fanlar, shu jumladan, xalq milliy o‘yinlari, millatimiz hayoti bilan bog‘liq bo‘lib, avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tib kelgan. Avlodlar egalagan bilim va tajribalar amaliy hayotda sinalgan, keyingi avlodlar tomonidan mustahkamlangan va takomillashtirilgan. Ularning mazmunini har bir avlod, jamiyat rivojlanishining bosqichlari yangilab borgan. Bolalar jamiyat rivojlanishining o‘sha bosqichida kattalar o‘ynagan xalq milliy o‘yinlarini o‘ynaganlar. Ko‘pgina milliy o‘yinlar otalar va bobolardan bolalar, nabiralarga o‘tgan. Xalq milliy o‘yinlari inson kamoloti va yoshlari tarbiyasida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababdan, o‘quvchi yoshliga xalq milliy o‘yinlarining ijtimoiy-tarbiyaviy jihatlarini chuqurroq singdirish zarurdir.

FOYDALANILGAN FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-sod Farmoni.
2. M.A.Qurbanova va M.U.Qosimova. Milliy va harakatli o‘yinlar. –T.: O‘zDJTI nashriyoti, 2009. – 66 b.
3. J.Eshnazarov. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. –T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2008. – 388 b.
4. T.Usmanxodjayev va boshqalar. Sport va harakatli o‘yinlar (milliy va harakatli o‘yinlar).- T.: Cho‘lpon, 2018. – 328 b.
5. M.A.Qurbanova va M.U.Qosimova. Milliy va harakatli o‘yinlar. –T.: O‘zDJTI nashriyoti, 2009. – 100 b.



KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA BO‘LAJAK GEOGRAFIYA O‘QITUVCHILARIGA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Oybek Abdumurotov,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Geografiya kafedrasи mudiri, p.f.f.d. (PhD)

Annotations

Oliy ta’lim muassasalarida geografiyadan mustaqil ta’limni samarali tashkil etish bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining kasbiy malakasini rivojlantirishda muhim omillaridan biridir. Mustaqil ta’lim talabalarga fani asoslari to‘g‘risida nazariy bilim olishga, amaliy ko‘nikmalarни shakllantirishga, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib o‘quv yili davomida amalga oshirilib boriladi. Ushbu maqolada bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarida mustaqil ta’limni tashkil etishning ahamiyati, uning dolzarbligi, mustaqil ta’limni tashkil etishdagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar: geografiya, mustaqil ta’lim, kredit, modul, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, modulli ta’lim texnologiyalari.

Аннотация. Эффективная организация самостоятельного образования по географии в высших учебных заведениях является одним из важных факторов повышения профессиональной квалификации будущих учителей

географии. Самостоятельное обучение направлено на то, чтобы студенты познакомились с основами науки, рассмотрели теоретические основы в практической форме, развивали творческие способности. В статье описывается значение организации самостоятельного обучения будущих учителей географии, его эффективность, проблемы организации самостоятельного обучения и пути их преодоления.

Ключевые слова: География, самостоятельное образование, кредит, модуль, педагогическая технология, интерактивные методы, модульные образовательные технологии.

Annotation

Effective organization of independent education in geography in higher education institutions is one of the important factors in improving the professional qualifications of future geography teachers. Independent education is aimed at students to learn about the basics of science, to observe theoretical foundations in practical form, to develop creative things. The importance of organizing independent education for future geography teachers, its effectiveness, problems in organizing independent education and ways to overcome them are described in the article.

Keywords: Geography, independent education, credit, module, pedagogical technology, interactive methods, modular educational technologies.

Kredit-modul tizimiga o'tib borayotgan mamlakatimizda ta'lif tizimini sloh qilish,unga rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalarni joriy etish, xalqaro ta'lif texnologiyalarini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish va yanada takomillashtirish, talabalarni mustaqil faoliyat yuritishga o'rgatish, o'qitish jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish, talabalarda mustaqil ta'lif olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, ma'lumotlarni tizmli tahlil qilish, taqqoslash, xulosa va qarorlar qabul qilish kabi amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa yurtimizning intellektual salohiyatini oshirishga, davlat ta'lif standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Qaysi sohada bo'lmisin bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish — talaba faoliyatining ta'lif muassasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o'qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Axborot oqimi tezlashib borayotgan bugungi davr talabi — yoshlarni iqtidorli, aqlli, innovatsiyaga ega bo'lishlari bilan bir qatorda har tomonlama yetuk va barkamol shaxsga aylantirishdir. Buni esa birgina auditoriya mashg'ulotlarida amalga oshirishning imkoniy yo'qligi uchun mustaqil ta'lif jarayoniga ham alohida ahamiyat qaratish dolzarb masala ekanligini anglatadi. Shu boisdan Davlat ta'lif standarti talabiga binoan bilimlarni mustaqil ravishda izlanib o'rganish vazifasi hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biridir. Shu sababli fanlarning nazariy asoslarini amaliy ko'nikma darajasida o'zlashtirib olishda mustaqil ta'lifning roli beqiyosdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lif sohasida o'qitishning kredit-modul tizimi talabalarni o'z ustida ishlashga, ularni mustaqil ta'lif olish imkoniyatlaridan foydalanishga xizmat qiladi. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"ga ko'ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030-yilgacha bosqicha-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Ushbu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2020-yil 30-iyundagi qarori

bilan 2020-2021-o'quv yilidan boshlab mamlakatimizda gi 35 ta OTM kredit-modul tizimiga o'tgan. Kredit-modul tizimi tamoyilida ikkita bosh masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishslashini ta'minlash hamda talabalar bilimini reyting asosida baholash [1, 290]. Kredit-modul tizimi orqali bu sohada erishilayotgan yutuqlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiyoti ta'lif tizimini ham pedagog-o'qituvchilar, ham talabalar uchun qulay va samarali tashkil etishning yangidan -yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Kam resurs sarflagan holda ko'proq natijaga erishish tamoyili nafaqat ta'lifda, balki boshqa sohalarda ham ustuvorlik qilmoqda. Qolaversa, postpandemiya davrida insoniyat bir qancha an'anaviy faoliyat turlarini masofadan amalga oshirish yo'llarini qidira boshladи, ayniqsa, ta'lif sohsida bunga har qachongidan ham kuchliroq ehtiyoj yuzaga keldi. Shu nuqtayi nazardan, oly ta'lifda kredit-modul tizimini joriy etishni zamonitoring o'zi taqozo etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'lifning kredit-modul tizimi sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishga umumiyo yondashuvlar borasida xorijiy davlatlar olimlaridan: B.A.Abdikarimov, G.K.Axmetova, N.A.Asanov,-y.L.Artamonova, O.V.Boyev, G.N.Gamamik, G.G.Pivnya, A.A.Kusainov, S.R.Ibatulin, B.A.Mirzamiev, S.M.Omirbayev, O.A.Sevostyanova, A.L.Chuchalina va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, mamlakatimiz olimlaridan: V.O'rinnov, M.Sultonov, A.Umarov, B.Sh.Usmonov, R.A.Habibullayevlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

O'quv jaroyonlari davomida talabalarning mustaqil ta'lifini tashkil etish masalalari yuzasidan xorijiy davlatlarda T.V.Gabay, G.S.Abramov, G.I.Aleksandrov, V.G.Razumovskiy, A.V.Usova, V.K.Buryak kabi olimlari ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan bo'lsa, yurtimiz olimlaridan K.A.Tursunmetov, A.I.Xudayberdiyeva, V.N.Zoptova, S.M.Matjonov, V.M.Karimova, U.N.Sultonova, S.R.Abdalova, O.A.Qo'ysinov, M.U.Qo'chqarov, M.L.Boltayevalar kabi metadist olimlar ta'lif jarayonida mustaqil ta'lifning ilmiy asoslari, talabalarning mustaqil ishi, mustaqil fikrlash bilan erkin mashqlarni tashkil etish uslubi, mustaqil ishlarni tashkil etish asoslari, o'qitish vo-

sitalari, mustaqil ta'lif mazmuni va metodikasi, mustaqil ta'lifning pedagogik-psixologik ahamiyati va shakllari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan.


Tahlil va natijalar. O'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsgina muammolarini o'zi mustaqil hal qila oladi, o'zi uchun ham, oilasi uchun ham foydali hisoblanadi hamda jamiyatda o'z mavqeiyiga ega bo'ladi [5, 12]. Bunday qobiliyat, albatta, dastlab oilada, keyinchalik esa barcha ta'lif sohalarida shakillana boshlaydi. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs(kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lif jarayonida mustaqil ta'lif olishning ulushini oshirish;
- ta'lif dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisiga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Modul — bu bir nechta fan hamda kurs o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi bo'lib, talabalarda muayyan bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmuyi hisoblanadi. Xorijiy tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2–4 tagacha moduldan iborat bo'ladi. Modulda jamlangan fanlar osondon murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Kredit — talabaning alohida ta'lif yo'nalishi yoki dasturi (kurs) bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasi (vaqt) o'lchov birligidir. Kredit — talabaning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lif olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvafqiyatli Kredit texnologiyasi ta'lif oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi.

Hozirgi kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'lifni tashkil etish muammosi juda dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki, fanlarni o'rganish uchun ajratilgan umumiyoq soat hajmidagi auditoriya mashg'ulotlarining ulushi kamayib mustaqil ta'lifni ulushi aksincha ortib borishini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lif yo'nalishi talabalarning o'quv rejasidagi umumiyoq soatning auditoriya va mustaqil ta'lif uchun ajratilgan soatlar taqsimoti (% hisobida).

Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lak, 2019-2020-o'quv yilida geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lif yo'nalishi talabalari an'anaviy ta'lif tizimida o'qiganligi bois ularga ajratilgan umumiyoq soatning 55,5 % i auditoriya soatiga, 44,5 % i mustaqil ta'lif soatiga to'g'ri kelganligini ko'rish mumkin. 2020-2021-o'quv yilidan boshlab Chirchiq davlat pedagogika universiteti kredit-modul tizimiga o'tganligi sababli, geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lif yo'nalishi talabalar uchun mo'ljallangan o'quv rejasidagi umumiyoq soatning 39,5 % i auditoriya soatiga, 60,5 % i mustaqil ta'lif soatiga to'g'ri kelganligini kredit-modul tizimida mustaqil ta'lifimga katta e'tibor qaratilganligini bildiradi. Ta'lif tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta'lif olishning asosiy omillaridan biri ekanligini inobatga olib, mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishslashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim. Buning uchun mustaqil ta'lif shakllaridan foydalananib, oliy ta'lif muassasalarida, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llab, talabalarni mustaqil faoliyat yuritishiga o'rgatish orqali ularda amaliy kompetensiya va kasbiy kompetentlik darajalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida qaralib, mustaqil ta'lif uchun berilgan topshiriqlar talabalarni fikrlashga, ijodiy rivojlanishga va didaktik tafakkurining o'sishiga olib kelishi kerak. Didaktik tafakkurining shakllanishi va taraqqiy etib rivojlanishi ta'lif jarayonida amalga oshadi [2, 1339]. Bu maqsadni amalga oshirish uchun talabalar fan asoslarini: bilim, ko'nikma va malakalarni chuqr egallab olishlari talab qilinadi. Mustaqil ta'lif uchun berilgan topshiriqlarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalananib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalananib ilmiy maqola va tezislardan tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini hamda amaliy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shuning

uchun ham mustaqil ta'lismiz o'quv faoliyati jarayonini samarali tashkil etish mumkin emas.

Respublikamiz oliv ta'lif muassasalarining kredit-modul tizimiga o'tilishi mustaqil ta'lifining tashkil etilishiga nisbatan yangicha yondashuv zarurligini ko'rsatmoqda. Mustaqil ta'lif samaradorligini oshirish bu sohada izchil tizimni yaratish zarurati dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmoqda. Bo'lajak geografiya o'qituvchilarida mustaqil ta'lifga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish mustaqil ta'lif samaradorligini ta'minlashga bog'liqdir. Shuning uchun oliv ta'lif muassasalarida geografiyadan mustaqil ta'lif jarayoni zamonaviy texnika va o'quv jihozlar bilan ta'minlash, o'quv va mutaxassislik fanlaridan Davlat ta'lif standartlarini takomillashtirish lozim [3, 371]. Natijada ushbu Davlat ta'lif standartlariga mos o'quv dasturlari va darsliklar yaratish juda muhimdir. Buning uchun esa, o'quv fanini o'qitish samaradorligini oshirish, uning yechimi sifatida mustaqil ta'lifning samaradorligini oshirish, pedagogik asoslarini yaratish sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'lifni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, uning samarali shakl metod va vositalarini tanlashga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Mustaqil ta'lif sifatini yaxshilash orqali talabalarining malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, eski metodlarni yangilari bilan almashtirishni, geografiyani o'qitishda zamonaviy yondashuvlarni joriy qilishni talab etadi. Shu boisdan ham bugungi kunda oliv ta'lif muassasalarini professor-o'qituvchilarini va ta'lif vazirliklari mutaxassislarini tomonidan talabalar mustaqil ta'lifini samarali tashkil etishga hamda shu orqali malakali mutaxassislarini tayyorlab berishga katta e'tibor qaratilmoqda. Mustaqil ta'lif bo'lajak geografiya o'qituvchilarining o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy faoliyati jarayonidir. Ya'ni mustaqil ta'lif qandaydir masala va muammoni o'qituvchidan davriy ravishda maslahat olish orqali yoki mustaqil ravishda o'rganishga asoslangan tizimli o'quv faoliyatidir. Mustaqil ta'lif mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'lajak geografiya o'qituvchilarining mustaqil fikrlash ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhimdir. Mustaqil fikrlash va ijodiy qibiliyatga ega geografiya o'qituvchisi muammolar yechimini topa oladi va bartaraf etish chog'i-da xech qanday qiyinchiliklarga duch kelmaydi.

Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'lifni samarali tashkil etishda quyidagilar muhim sanaladi:

- mustaqil ta'lifni tashkil etilishini jadallashtirish uning mazmuni va samaradorligini oshirish uchun pedagogik texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish;
- mustaqil ta'lif sifatini oshirish, mazmuni, metod, shakl va vositalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga

joriy etish;

– mustaqil ta'lif mashg'ulotlari loyihasini ishlab chiqish, muammoli topshiriqlarni tuzish, uslubiy tavsiya va ko'rsatmalarni tayyorlash;

– pedagogik texnologiyalarini amaliyotga joriy etish orqali talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyat va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish;

– oliv ta'lif muassasalarini professor-o'qituvchilarining mustaqil ta'lifni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish bo'yicha malakasini oshirish;

– mustaqil ta'lifni tashkil etish muammolarga oid ilmiy tadqiqot ishlarini ko'proq olib borish va ularning natijalarini o'quv jarayoniga joriy etish;

– ta'lif tarbiya jarayonida mustaqil ta'lif mazmunini tahlil etish va uni to'g'ri tashkil etishda xorij tajribalaridan samarali foydalanish.

Mustaqil o'quv faoliyatlarini rivojlantirish, mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish oliv ta'lif muassasalarining asosiy vazifalaridan bo'lib professor-o'qituvchilarining pedagogik ilmiy malakasiga, talabalarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etishga bog'liq. Geografiya fanlaridan mustaqil ta'lifni nazariy va amaliy jihatdan tashkil etish bilim va mahoratni talab etadi. Talabalar o'quv materiallaridan muhimlarini ajratib olish, dalillarni to'g'ri baholash, tahlil qilish amaliyotda qo'llay olishga o'rgatilsa mustaqil ta'lif samarali bo'ladi [4, 8]. Mustaqil ta'lif bilish, tafakkur yuritish jarayonlarini o'zida mujassamlashtiradi. U talabani hayotga, mehnat qilishga tayyorlash yo'llaridan biridir. Puxta o'yangan va ilmiy asoslangan mustaqil ta'lif jarayonida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining o'qish-o'rganish faoliyati keskin faolashadi, bilinga intilishi kuchayadi, mustaqil o'quv faoliyati rivojlanadi.

Xulosa va takliflar. Mustaqil ta'lifni tashkil qilishda talaba ma'lumotlarni manbalardan izlab topish, tahlil qilish, zarurlarini ajratib olish, tartibga solish, fikrini aniq ifodalash, to'g'ri baholash ko'nikmalariga ega yoki ega emasligiga e'tibor qaratish lozim. Shundan kelib chiqib talabalarining aqliy va kasbiy qobiliyatlariga mos mustaqil ta'lif topshiriqlarini berish maqsadga muvofiqdir. Aks holda talaba mustaqil ta'lif faoliyatidan bezib qoladi, natijada fanga qiziqishi susayadi. Mustaqil ta'lifni fan sohasidagi amaliyot bilan qo'shib olib borish asosida tashkil etish, olgan nazariy bilimlarni mustahkamlash, ta'lif olishning usullarini egallash, mustaqil fikrlashini rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Mazzkur masalalarni ilmiy-amaliy nuqtai-nazardan o'rganish, yetarli shart-sharoitlar yaratish, mustaqil ta'lifni tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilish, talabalarining bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv qo'llanma va darsliklarning yangi avlodini yaratish mustaqil ta'lif jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilariga mustaqil ta'lif samaradorligini oshirish-

ga, ularning mustaqil fikrlash ijodiy qobiliyat hamda kasbiy mahoratlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi muammolar bartaraf etilishi lozim:

- geografiya fanlarini o'qitishda va mustaqil ta'l'm jayroniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etilsa va ulardan samarali foydalanilsa;

- geografiyadan mustaqil ta'l'm mazmunini ifodalovchi o'quv dasturi, metodik qo'llanma va didaktik materiallar hamda o'quv jarayoni bilan uzviyligi ta'minlansa;

- turli shakldagi mustaqil ta'l'm topshiriqlarni tuzishda modulli ta'l'm texnologiyasidan hamda muammoli o'qitish shakllaridan, interfaol metodlardan samarali foydalanilsa;

- mustaqil ta'l'm aniq metod, shakl va vositalar yordamida amalga oshirilsa

- talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini belgilovchi mezonlar ishlab chiqilsa.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdumurotov O.U. Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining mustaqil ta'lmini tashkil etish shakllari. "Pedagogika" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023. 4-son. 289-293-b.
2. Abdumurotov O.U. Geografiya darslarida mustaqil ta'lmini tashkil qilishda interfaol metodlardan foydalanish. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Volume-11. Issue-10. 2023. 1337-1345-b.
3. Abdumurotov O.U. Talabalarning mustaqil ta'l'm olish imkoniyatlarini rivojlantirish mexanizmlari. "Zamonaviy biologiyaning dolzarb muammolari: yechimlari, istiqbollari va o'qitishda fan-ta'l'm integratsiyasi" xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi ilmiy ishlar to'plami. Chirchiq, 26-27-oktyabr 2023-yil. 370-374-b.
4. Abdalova S.R. Fizikadan mustaqil ta'lmini tashkil etish texnologiyalari. Dissertatsiya. Toshkent, 2012. 140-b.
5. Qo'chqarov M.U. Talabalarda mustaqil ta'l'm olish ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi va texnologiyasi ("Oliy matematika" o'quv fani misolida) Dissertatsiya. Nukus, 2019. 138-b.



JAHON TAJRIBASIDA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHGA DOIR IJTIMOIY-PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI

Muxayyo Alikulova,
Shahrisabz davlat pedagogika
instituti tadqiqotchisi

Annotation

Mazkur maqola mazmunida oila tarbiyasining eng muhim jihatlari va bu tarbiya turning dunyo mamlakatlarida e'tirof etilishi haqida fikr yuritilgan bo'lib maqolada berilgan manbalar Oliy o'quv yurti talabalaring oilaviy munosabatlarga nisbatan qadriyat sifatida yondashishga va ulardagi majmuaviy bilimlarning shakllanishiga yordam beradi. Bundan tashqari maqolada G'arbiy mamlakatlarda oila tarbiyasiga bo'lgan munosabat va bu tarbiyaning rivojlanish taraqqiyoti haqida fikr-mulohazalar kiritilgan. Maqolada berilgan manbalardan Oliy o'quv yurtida o'qitiladigan mutaxassislik fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: yoshlar tarbiyasi, oilaviy hayot, pedagogik yondashuv, aksiologik qadriyat, majmuaviy bilim, oilaviy burch, oilaviy mas'uliyat, oliviy majmubiyat.

Аннотация

В содержании данной статьи рассмотрены важнейшие аспекты семейного воспитания и признание данного вида воспитания в странах мира. Ресурсы, представленные в статье, помогают студентам высших учебных заведений подходить к семейным отношениям как к ценности и формировать в них комплексные знания. Кроме того, в статью включены отзывы об отношении к семейному воспитанию в западных странах и о прогрессе в развитии этого воспитания. Ресурсы, представленные в статье, могут быть использованы при преподавании предметов специальности, преподаваемой в высшем учебном заведении.

Ключевые слова: воспитание молодежи, семейная жизнь, педагогический подход, аксиологическая ценность, комплексное знание, семейный долг, семейная ответственность, Оливковая ответственность.

Annotation

The content of this article reflects on the most important aspects of family education and the recognition of this type in countries of the world, and the resources given in the article contribute to the approach of students of higher educational institutions as a value in relation to family relations and the formation of complex knowledge in them. In addition, the article